

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTALARINI SOLIQQA TORTISHNING XORIJIY AMALIYOTI.

TURANBOYEV BOBURJON QODIRJON O‘G‘LI

boburturonboyev@gmail.com

Qo‘qon universiteti “Xalqaro turizm
va iqtisodiyot” kafedrasи o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortishni rivojlantirish jarayonida, xorijiy mamlakatlardagi amaliy tajribalarni tahliliy o‘rganish muhim hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar misolida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan soliq tizimi, soliq imtiyozlari va rag‘batlantiruvchi chora-tadbirlarni tahliliy o‘rganish, ularni amaliyatga tadbiq etishda muhi ahamiyat kasb etadi. Ushbu izlanishda xorijiy tajribalar asosida, soliq tizimini takomillashtirish bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular milliy iqtisodiyotni yanada liberallashtirish va kichik biznesni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *kichik tadbirkorlik subyektlari, soliq, soliq imtijozi, soliqqa tortish, soliq tizimi.*

АННОТАЦИЯ.

В процессе развития налогообложения субъектов малого бизнеса и предпринимательства важно аналитически изучать практический опыт зарубежных стран. На примере развитых государств особое значение приобретает анализ налоговой системы, налоговых льгот и стимулирующих мер, направленных на поддержку малого бизнеса, а также их применение на практике. В данной статье на основе зарубежного опыта разработаны конкретные предложения и рекомендации по совершенствованию налоговой системы, которые будут способствовать дальнейшей либерализации национальной экономики и развитию малого бизнеса.

Ключевые слова: субъекты малого предпринимательства, налог, налоговая льгота, налогообложение, налоговая система

ANNOTATION

In the process of developing the taxation of small business and entrepreneurship entities, it is important to analytically study the practical experience of foreign countries. Using developed countries as examples, particular significance is given to the analysis of tax systems, tax incentives, and support measures aimed at promoting small businesses, as well as their practical application. Based on foreign experience, this article presents specific proposals and recommendations for improving the tax system, which will contribute to the further liberalization of the national economy and the development of small business.

Key words: *small business entities, tax, tax incentive, taxation, tax system.*

KIRISH. Bugungi globallashuv sharoitida mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy raqobat kuchayib borayotgan bir paytda, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, ularning faoliyatini yengillashtirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish muhim strategik vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Juhon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, kichik biznesning o‘sishi va rivojlanishi ko‘p jihatdan unga nisbatan qo‘llanilayotgan soliq siyosati va mavjud soliq tartib-taomillarining qulayligiga bog‘liqdir.

Ayrim rivojlangan davlatlar kichik tadbirkorlik subyektlari uchun maxsus soliq rejimlarini joriy etib, ularni rag‘batlantirish orqali iqtisodiy faollikni oshirishga erishgan. Ayniqsa, AQSh, Germaniya, Turkiya, Polsha, Singapur kabi davlatlarda kichik biznesni soliqqa tortish mexanizmlari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu tajribalar O‘zbekiston uchun ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Mazkur tadqiqotda turli davlatlarning kichik biznes subyektlariga nisbatan soliqqa tortish amaliyoti o‘rganilib, ularning afzallik va kamchiliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, xorijiy tajriba asosida O‘zbekiston soliq tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilinadi.

ASOSIY QISM. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortishning xorijiy amaliyotini tahlil qilish, turli mamlakatlarda qo'llanilayotgan soliq tizimlari va imtiyozlarini o'rganish orqali milliy soliq siyosatini takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Quyida rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan soliq tizimlari, soliq imtiyozlari va rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar tahlil qilindi.

Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes uchun korporativ soliq stavkalarini va ularga beriladigan imtiyozlar sezilarli darajadagi farqlarga ega. OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tomonidan taqdim etilgan 2024-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Yevropa Ittifoqi davlatlarida o'rtacha korporativ soliq stavkasi 21,27% ni tashkil etadi, OECD mamlakatlari bo'yicha bu ko'rsatkich 23,85% ga teng. Ayrim davlatlar kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ularga nisbatan ancha past darajadagi soliq stavkalarini joriy qilgan. Masalan, Buyuk Britaniyada yillik sof foydasi £50,000 dan kam bo'lgan kichik korxonalar uchun korporativ soliq stavkasi atigi 19% ni tashkil etadi. Shuningdek, Kanada, Irlandiya, Yaponiya kabi mamlakatlar ham kichik biznes uchun soliq imtiyozlari, soddalashtirilgan hisobot shakllari va yengillashtirilgan audit talablari kabi chora-tadbirlarni tatbiq etib kelmoqda. Bu esa kichik biznesning o'sishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi¹.

OECD bazasining 2021-yil ma'lumotlariga ko'ra 38 ta OECD a'zosidan 33 tasida tadbirkorlik subyektlari tomonidan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalariga (eng.:R&D) qilinadigan xarajatlar uchun imtiyozli soliq rejimlarini joriy etilgan. Ushbu imtiyozlar OECD davlatlarida R&D faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning o'rtacha 55 foizini tashkil etib, bu holat davlatlar tomonidan innovatsion faoliyatni rag'batlantirishda soliq vositalarining muhim ahamiyat kasb etayotganligini ko'rsatadi. Masalan, Fransiyada amal qilayotgan soliq krediti dasturi orqali kompaniyalar R&D xarajatlarining 30% ini to'g'ridan-to'g'ri yillik soliq majburiyatlaridan chegirib tashlash huquqiga ega. Bu mexanizm nafaqat yirik

¹ Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti rasmiy sahifasidan olindi. <https://www.oecd.org/>

korxonalar, balki kichik va o‘rta biznes vakillari uchun ham taalluqli bo‘lib, ilmiy- texnik salohiyatni oshirishga va texnologik innovatsiyalarni amaliyatga joriy etishga katta yordam beradi².

Ko‘plab rivojlangan mamlakatlar tomonidan kichik biznes subyektlari uchun soddalashtirilgan soliq rejimlarini amaliyatga joriy etilgan. Bu kabi tizimlar kichik korxonalarga yillik daromadlari yoki xodimlar soniga qarab imtiyozlar berish mexanizmlarini tartibga solidi. Masalan, Polshada kichik biznes uchun yillik daromadi belgilangan limitdan past bo‘lgan korxonalar uchun soddalashtirilgan soliq rejimidan foydalana oladi. Ular uchun daromad solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) va ijtimoiy sug‘urta to‘lovlari bo‘yicha soddalashtirilgan stavkalar va hisobot talablari joriy etilgan. Bu kabi rejimlar soliq yukini kamaytirib, moliyaviy intizomni oshiradi hamda kichik biznesning rasmiy iqtisodiyotga kirishini rag‘batlantiradi. Bundan tashqari, bu yondashuv soliq organlari uchun ma’muriy xarajatlarni kamaytiradi va biznes yuritish muhitining qulayligini oshiradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, soliq imtiyozlari kichik biznesning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, ammo ularning samaradorligi mamlakatning iqtisodiy va institutsional sharoitlariga bog‘liq. Masalan, OECD tomonidan olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, soliq imtiyozlari kichik biznesning investitsiya va innovatsion faoliyatini rag‘batlantirishi mumkin, ammo noto‘g‘ri mo‘ljallangan imtiyozlar soliq bazasining qisqarishiga olib kelishi mumkin.

XULOSA. Xorijiy tajribalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan soliq imtiyozlari va soddalashtirilgan rejimlar ularning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, bu imtiyozlar va rejimlar samarali bo‘lishi uchun ularning ishlash mexanizmi mamlakatning iqtisodiy va institutsional sharoitlariga mos kelishi kerak. Shu sababli, milliy soliq siyosatini ishlab chiqishda xorijiy tajribalarni inobatga olish va ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish muhim ahamiyatga kasb etadi.

Tadqiqotning tahliliy natijasidan, quydagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

² Xalqaro soliqqa oid tahliliy ma’lumotlarni yig‘uvchi tashkilot. <https://taxfoundation.org/>

- viloyatlar iqtisodiy salohiyati va kichik biznesning ulushi inobatga olinib, soliq yengilliklari hududiy ehtiyojlarga moslashtirilgan tarzda joriy etilishi lozim;
- OECD davlatlari tajribasiga tayangan holda, O‘zbekistonda ham kichik biznes subyektlari tomonidan olib borilayotgan R&D (ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik) faoliyatiga soliq imtiyozlarini joriy qilinishi maqsadga muvofiq;
- soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun tizimli monitoring mexanizmi joriy qilinib, imtiyozlar natijasida erishilgan ijobjiy o‘zgarishlar tahlil qilinishi lozim.

Soliq tizimining shaffofligi va barqarorligi ta’minlangan taqdirda, kichik biznes subyektlari rivojlanishga erishadi. Shu sababli, xorijiy ilg‘or amaliyotlar asosida ishlab chiqilgan takliflarning amaliyotga joriy etilishi kichik tadbirdorlik subyektlari faoliyatining kengayishi va iqtisodiy o‘sish sur’atlarining barqarorligini ta’minlash jarayonida muhim omillardan biri bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bird, R., & Zolt, E. (2014). *Tax policy in emerging economies: The role of small business taxation*. Journal of Public Economics, 118, 104-116.
<https://doi.org/xxxxx>
2. Schneider, F. (2015). *The shadow economy and taxation policies: A global perspective*. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Qodirjon o‘g‘li, T. B. (2024). SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ TA’SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(1), 151-153.
4. Turanboyev, B. (2024). O‘ZBEKISTON FOND BOZORIDA AKSIYALAR SAVDOSINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI TAHLILI. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 5-8.

5. Turanboyev, B. (2024). ILG'OR XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA ELEKTRON TIJORAT FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 1-4.

6. <https://taxfoundation.org/>

7. <https://www.oecd.org/>